Materiallar to’plami · Conference Proceedings
QATAG‘ON QURBONLARI: TARIXIY XOTIRA, MILLIY O‘ZLIK VA MA’NAVIY MEROS
10 September – 10 October 2026
UDK 94

SHARQ MUTAFAKKIRLARI QARASHLARIDA IJTIMOIY RAVNAQ MASALALARINING YO‘RITILISHI

Dildor Esonaliyevna Normatova*
Farg‘ona davlat universiteti, falsafa fanlari nomzodi, dotsent
✉ dildornormatova@1972.gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada sharq mutafakkirlarining ijtimoiy ravnaq tushunchasining o‘z qarashlarida yoritishi va uning tahliliga e’tibor qaratilgan. Shuningdek, ijtimoiy ravnaq insoniyat tafakkurining eng muhim falsafiy va ijtimoiy kategoriyalaridan biri erkanligi o‘rganilgan. Ijtimoiy ravnaq haqida antik davr faylasuflarining qarashlari keyingi davrlardagi ijtimoiy-falsafiy nazariyalari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar

ijtimoiy ravnaq, ravnaq, tafakkur, farovonlik, jamiyat, erkinlik, axloq, metodologiya, madaniy meros.

DOI: 10.5281/zenodo.23279663

KIRISH

Jahonda insoniyat taraqqiyoti iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va texnologik jarayonlarning misli ko‘rilmagan darajada jadallashuvi, globallashuv va integratsiya jarayonlarining chuqurlashuvi, raqamli texnologiyalarning ijtimoiy hayotning barcha sohalariga kirib borishi, sun’iy intellekt va innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi, ekologik muammolarning keskinlashuvi hamda ijtimoiy munosabatlarning transformatsiyasi bilan tavsiflanmoqda.

Bunday sharoitda jamiyat taraqqiyotining mazmuni, yo‘nalishi, ichki manbalari va istiqbollarini yangicha falsafiy-metodologik asosda anglash zarurati tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy farovonlik, texnologik taraqqiyot va insoniylik, individual erkinlik va ijtimoiy mas’uliyat, globallashuv va milliy o‘zlik, innovatsiya va an’ana, barqarorlik va o‘zgaruvchanlik o‘rtasidagi murakkab dialektik munosabatlar ijtimoiy taraqqiyotning biryoqlama emas, balki ko‘p omilli va ziddiyatli jarayon ekanligini ko‘rsatmoqda.

Ijtimoiy ravnaq axloqiy ravnaq uchun zamin yaratadi, undagi ma’naviy madaniyatning bir qismi sifatida shakllanadi. O‘rta Osiyoda madaniy meros va falsafiy tafakkur tarixini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish, avvalo uning muhim bosqichlarini tarixiylik prinsipini, tarixiy yondoshish asosida davrlashtirishni taqozo etadi. Bu vazifa bevosita Markaziy Osiyo mutafakkirlari axloqiy qarashlarining tarixiy bosqichlarini va uning muhim xususiyatlarini tadqiq etish bilan ham bevosita bog‘liq. Sharq mutafakkirlari qarashlarida ijtimoiy ravnaq jamiyatning faqat iqtisodiy yoki siyosiy yuksalishi emas, balki adolat, ilm-ma’rifat, axloq, komil inson, davlat boshqaruvi va xalq farovonligining uyg‘un rivoji sifatida talqin qilinadi. Bu g‘oya qadimgi Sharqdan boshlab islomiy falsafa va Markaziy Osiyo tafakkurigacha izchil rivojlangan.

Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” [1, B.12] asarida jamiyat taraqqiyoti insonlarning ezgu maqsadlar atrofida birlashishi, adolatli boshqaruv va ma’naviy kamolot bilan bog‘lanadi, uning fikricha inson yolg‘iz holda barcha ehtiyojlarini qondira olmaydi, shu sababli odamlar jamiyatga birlashadilar, ravnaqning asosiy shartlarini esa adolatli boshqaruv, ilm va bilim, axloqiy fazilatlar, jamiyat manfaatlarining uyg‘unligi, insonning kamol topishi tashkil etadi deb hisoblagan. Abu Rayhon Beruniy jamiyat va inson taraqqiyotini ilm,

tajriba, mehnat va ijtimoiy hamkorlik bilan bog‘laydi [2,B.20]. U turli xalqlarning urf-odatlari va madaniyatlarini qiyosiy o‘rganib, taraqqiyotga tor etnosentrik emas, balki umuminsoniy yondashuvni ilgari surgan.

Abu Ali ibn Sino inson tabiatan ijtimoiy mavjudot ekanini, odamlar o‘zaro yordam va hamkorlik orqali o‘z ehtiyojlarini qondirishini ta’kidlaydi [3, B.8]. Yusuf Xos Hojib qarashlarida ijtimoiy ravnaq adolat va ma’rifatga asoslangan boshqaruvdadir deyiladi [4: B.14], Imom Abu Homid G‘azzoliy jamiyat taraqqiyotini insonning axloqiy va ruhiy kamoloti bilan bog‘laydi [5, B.33]. Uning nazarida moddiy manfaatning o‘zi inson va jamiyatni chinakam farovonlikka olib bora olmaydi.

Ibn Xaldunning eng muhim tushunchasi “asabiyyah”, kishilsrning ijtimoiy birdamligi, hamjihatligi va umumiy maqsad atrofida birlashishni davlat va sivilizatsiya asarida davlatlar va jamiyatlarning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va tanazzuli qonuniyatlari o‘rganiladi. Kuchli birdamlik davlat va jamiyatni barqarorlashtiradi, uning sussayishi esa tanazzulga olib keladi degan fikrlari hozirgi kunda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Alisher Navoiyda jamiyat ravnaqi insonparvarlik, adolat, saxovat, ilm-ma’rifat va komil inson g‘oyalari orqali, ifodalanadi. Navoiy qarashlarida ijtimoiy ravnaqning asosiy maqsadi - inson qadrini ulug‘lash va xalq farovonligini ta’minlash**.** Sharq falsafasida ijtimoiy ravnaq konsepsiyasi bir o‘lchovli taraqqiyot tushunchasi emas**.** U iqtisodiy farovonlik, siyosiy adolat, ilmiy-ma’rifiy yuksalish, axloqiy kamolot, ijtimoiy birdamlik va inson manfaatlarining uyg‘unligini qamrab oladi. Shu bois Sharq mutafakkirlarining merosi zamonaviy “ijtimoiy ravnaq” tushunchasining tarixiy-falsafiy ildizlarini ochib beruvchi muhim nazariy manba bo‘la oladi.

XULOSA

Ijtimoiy ravnaq insoniyat tafakkurining eng muhim falsafiy va ijtimoiy kategoriyalaridan biri bo‘lib, u jamiyatning tarixiy rivojlanish qonuniyatlari, taraqqiyot omillari, ijtimoiy institutlarning takomillashuvi hamda inson farovonligining yuksalishini ifodalaydi.

Mazkur tushuncha turli tarixiy davrlarda turlicha mazmun kasb etgan bo‘lib, uning shakllanishi qadimgi dunyo falsafasi, o‘rta asr Sharq va G‘arb tafakkuri, klassik nemis falsafasi hamda zamonaviy ijtimoiy nazariyalar bilan uzviy bog‘liqdir. Shu bois ijtimoiy ravnaq konsepsiyasining tarixiy evolyutsiyasini Avgustin Avreliy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Xaldun, Georg Vilgelm Fridrix Gegel, Karl Marks va boshqa mutafakkirlarning nazariyalari asosida qiyosiy tahlil qilish ushbu tushunchaning metodologik negizlarini ochib berishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy ravnaq haqida antik davr faylasuflarining qarashlari keyingi davrlardagi ijtimoiy-falsafiy nazariyalar uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. -Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 320 b.
2. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Toshkent: Fan, 1968. -486 b.
3. Abu Ali Ibn Sino. Donishnoma. Dushanbe: Irfon, 1980.
4. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. Nashrga tayyorlovchi Q.Karimov. -Toshkent: Fan, 1971.
5. Abu Homid G‘azzoliy. Kimyoi saodat. Toshkent: Kamalak, 1994.